



O'zbekistondagi

hamkolar:

- Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya Instituti
- Toshkent Arxitektura Qurilish instituti
- Qoraqalpoq Davlat Universiteti
- O'zbekiston Milliy Universiteti
- Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi

YerGeodezKadastr Davlat Qo'mitasining:

- Geodeziya va kartografiya milliy markazi
- Geoinformkadastr davlat unitar korxonasi




Evropa Ittifoqidagi

hamkorlar:

- G'arbiy-Vengriya Universiteti, Vengriya
- Paris Lodron Universiteti, Austria
- Shvetsiya qirollik texnologiya Instituti, Shvetsiya
- Grinvich universiteti, Birlashgan Qirollik

Biz bilan bog'lanish



Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya Instituti (11-bino, 3-qavat, 305-xona).

Metro: Hamid Olimjon bekati.

Avtobuslar: 152, 95, 2, 89, 88.

Manzil:

Qori Niyoziy ko'chasi 39, Toshkent-100000, Uzbekistan

Tel / Fax: +998 71 237-25-60

E-mail: admin@tiim.uz

www.geoinformatics.uz, www.ge-uz.eu



Tempus



Buklet TEMPUS GE-UZ loyhasining moliyaviy yordami bilan nashr qilindi "Geoinformatika: O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash."



Tempus



GEOINFORMATIKA bo'yicha yangi magistratura mutaxassisligi

5A311502

Geodeziya va kartografiya (geoinformatika)

Ta'lim va Tadqiqot

2014

Kirish

Geoinformatika bo'yicha magistratura mutaxassisligi Tempus GE-UZ loyihasi asosida tashkil etildi. Mutaxassislik muvaffaqiyatli bo'lishi uchun loyiha doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Tegishli tashkilotlar va oily ta'lim muassasalarining sohaga bo'lgan ehtiyoji "Ehtiyojlar tahlili" orqali o'rganildi va bu bo'yicha o'quv fanlari tanlab olindi;
- 4 ta oliy ta'lim muassasasining 8 nafardan o'qituvchilari Avstria va Vengriya davlatlarining ilg'or universitetlarida malaka oshirib kelishdi;
- Yevropa va milliy ta'lim standartlariga mos keladigan o'quv reja, fan dasturlari va o'quv qo'llanmalar yaratildi;
- Zamonaviy geodezik texnologiyalar va kompyuterlar xarid qilindi, laboratoriya xonalari ochildi;
- Hamkorlikdagi 4 ta oliy ta'lim muassasalari uqitish jarayonida o'z hissasini qushadi;

Geoinformatika uchun jihozlangan kompyuter sinfi



Bilim va ko'nikmalar:

Geoinformatika tizimi va fani:

- Geoinformatika tushunchalari va terminlari bilan tanishish;
- Fazoviy qaror va fazoviy operatsiya muammolarini bilish;
- GATning texnikaviy shuningdek tashkiliy tizimlarining asosiy tarkiblarini aniqlash.

Ma'lumot olish va integratsiyalash:

- Ma'lumot olish usullarini aniqlash, muhokama qilish va taqqoslash hamda qaysi usulni qo'llash haqida qaror qabul qilish;
- Ma'lumotlarni ajratib olish va birlashtirish bilimlarini egallash.

Fazoviy tahlillar:

- Fazoviy tushuncha va bog'liqlikning turma xilligini tushunish;
- Muammolarni hal etish uchun geostatistika texnikasidan foydalanish.

Kartografiya va Geovizualizatsiya:

- GAT loyihalarining ishlash jarayonida vizual bog'lashning rolini baholash;
- Rang, sinflash va karta elementlarini vizual ma'lumotlarga ta'sirini tushunish.

Masofadan zondlash:

- Masofadan Zondlash tushunchasi va asosini tanqidiy baholash;
- Masofadan zondlash tizimi va platformalarini farqlash;
- O'simliklar, o'rmon, suv va boshqalar monitoringini o'tkazishda munosib masofadan zondlash usulini qo'llashga qaror qabul qilish.

Fazoviy ma'lumot tuzilmasi va modellari:

- Ma'lumotlarni modellashtirishning umumiy tamoyillarini tanqidiy baholash;
- Alohida ma'lumotlar tuzilmasida fazoviy ma'lumotlar ko'rinishining asosini belgilash;
- Model mohiyati va munosabatini qurish va baholash.

Ma'lumotlar bazasi va arxitekturasi:

- Fazoviy ma'lumotlar bazasining tamoyillari va texikasini tushinish, bu tamoyil va texikalarni fazoviy ma'lumotlar bazasini yaratishda qo'llash;
- Yer ma'lumotlar bazasini yaratish va o'zgartirish: atribut domenlar, subtiplar, topologiya, bog'liq sinflar va annotatsiyani o'z ichiga oladi.

Loyihani tashkil etish va boshqarish:

- GAT loyihalarida muhim ko'rsatkichlarni hisobga olish va tarkibiy elementlarni rejalashtirish;
- Insoniy, moliyaviy, texnik va boshqa resurslarning asosiy toyifalarni aniqlash;
- Tashkillashtirishning asosiy modellarini va tashkilotlarda ular GAT sohasiga qanday qo'llanilishini tushinish.

O'qitishda ishlatiladigan zamonaviy uskunalar:

Trimble M3 Servo elektron taxeometr



Bu eng qulay asboblardan biri, yengil va ixcham. Trimble® M3 taxeometrlarida talab qilinayotgan vaziyatda syomka bajarish uchun barcha qulayliklar mavjud.

Yuqori aniqlikdagi "Elektron hujjatni boshqarish" funksiyasi tez va ishonchli o'lchovlar olishni ta'minlaydi.

The Trimble® TX5 3D lazerli skaner



Turli skanerlash vazifalari uchun mo'ljallangan bo'lib, tubdan o'zgartirilgan va ko'p funktsiyali 3 o'lchamli skaner. Ixcham va yengil dizayni ish jarayonida tengi yo'q mobillikni ta'minlaydi va ish unumdorligini oshiradi. Sezuvchan va foydalanish uchun oson interfeys yangi foydalanuvchilarga tezlikni oshirish imkoniyatini beradi.

GNSS rover- Trimble R4



To'liq GNSS tizimi:

Yengil, qulay va kabelsiz;

Ikki-chastotali antenna trek

qilish qobiliyatini kuchaytiradi;

Faza markazi barqarorligini millimetr bo'laklarigacha ta'minlaydi;

Olinadigan batareya bilan energiyalashdirilgan;

GPS L1, L2, L2C va QZSS bilan standartlashtirilgan.